



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2023-yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **37,7** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,7** mingtaga kamaygan yoki **18,7 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,8** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-yilning yanvar-sentabrida **6,2** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,4 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2019-2023-yillar 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2023-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni (birlikda) va ulushi, foizda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2023-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022-y.		2023-y.
13 376	Samarqand sh.	10 506
1 448	Kattaqo'rg'on sh.	1 285
1 926	Oqdaryo	1 697
1 851	Bulung'ur	1 638
1 858	Jomboy	1 608
2 401	Ishtixon	1 918
2 272	Kattaqo'rg'on	1 975
953	Qo'shrabot	916
1 398	Narpay	1 303
2 307	Payariq	1 870
3 824	Pastdarg'om	2 853
1 127	Paxtachi	1 103
3 307	Samarqand	3 058
1 386	Nurobod	1 235
3 914	Urgut	2 959
1 951	Toyloq	1 732

2023-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **37 680** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6 236** tani tashkil etdi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida **10 506** tani yoki jamiga nisbatan **27,9 %** ni tashkil etdi.

2023-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Samarqand sh.	18,2
Samarqand	13,8
Bulung'ur	13,7
Kattaqo'rg'on sh.	13,7
Oqdaryo	12,7
Jomboy	12,4
Nurobod	12,3
Payariq	12,0
Ishtixon	10,5
Toyloq	10,8
Kattaqo'rg'on	10,4
Qo'shrabot	10,9
Paxtachi	10,4
Pastdarg'om	8,9
Urgut	8,1
Narpay	7,9

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2023-yil 1-oktabr holatiga, birlikda



2023-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **11,8** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan **3,0** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,2** birlik, Samarqand tumanida **13,8** birlik, Bulung'ur tumanida **13,7** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **13,7** birlik va Oqdaryo tumanida **12,7** birlikka yetdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich



Samarqand shahar
18,2 birlik.



O'rta ko'rsatkich




Ishtixon tumani
10,5 birlik.



Eng past ko'rsatkich



Narpay tumani
7,9 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,2** birlik, Samarqand tumanida **13,8** birlik, Bulung'ur tumanida **13,7** birlik, Oqdaryo tumani va Kattaqo'rg'on shahrida **12,7** birlik, Jomboy tumanida **12,4** birlik, Nurobod tumanida **12,3** birlik, Payariq tumanida **12,0** birlik, Qo'shrabot tumanida **10,9** birlik, Toyloq tumanida **10,8** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023-yil 1-oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Samarqand shahar

18,2

Bulung'ur tumani

13,7

Oqdaryo tumani

12,7

Samarqand tumani

13,8

Kattaqo'rg'on shahar

13,7

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022-y.

2023-y.

2 049	Samarqand sh.	1 421
732	Pastdarg'om	560
644	Samarqand	509
703	Urgut	448
420	Bulung'ur	397
450	Oqdaryo	320
463	Kattaqo'rg'on	328
502	Ishtixon	313
383	Payariq	311
393	Toyloq	324
358	Jomboy	263
321	Nurobod	244
243	Paxtachi	214
256	Narpay	207
249	Kattaqo'rg'on sh.	205
191	Qo'shrabot	172

2023-yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

Samarqand sh.	22,8
Pastdarg'om	9,0
Samarqand	8,2
Urgut	7,2
Bulung'ur	6,4
Kattaqo'rg'on	5,3
Oqdaryo	5,1
Ishtixon	5,0
Payariq	5,0
Toyloq	5,2
Jomboy	4,2
Nurobod	3,9
Paxtachi	3,4
Narpay	3,3
Kattaqo'rg'on sh.	3,3
Qo'shrabot	2,7

2023-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri **22,8** %, Pastdarg'om tumani **9,0** %, Samarqand tumani **8,2** %, Urgut tumani **7,2** %, Bulung'ur tumani **6,4** %, Kattaqo'rg'on tumani **5,3** %, Toyloq tumani **5,2** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023-yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa xizmatlar

2022-y. 2023-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 2 666 ta, sanoatda 1 024 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 613 ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Samarqand shahrida 1 421 ta, Pastdarg'om tumanida 560 ta, Samarqand tumanida 509 ta hamda Urgut tumanida 448 ta yangidan tashkil etilgan.


2022-y. 2023-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023-yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **34 185** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **14 667** (yoki **42,9 %**) ta, xizmatlar sohasida **7 840** (yoki **22,9 %**) ta, sanoat sohasida **6 465** (yoki **18,9 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **3 700** (yoki **10,8 %**) ta va qurilish sohasida **1 513** (yoki **4,5 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, foizda



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi




Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2022-y. ■ 2023-y.




■ 2022-y. ■ 2023-y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), foizda

2023-yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **73,1** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **0,7** punktga kupaygan. Ko'payishining asosiy sababi, kichik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, foizda




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **98,0** % ni, yo'lovchi tashishda **95,4** % ni, qishloq xo'jaligida **95,7** % ni, yuk aylanmasida **89,9** % ni, qurilishda **83,1** %, chakana savdoda **80,8** % ni, tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	2 858,1
Urgut	1 271,5
Jomboy	1 182,9
Samarqand	937,5
Toyloq	662,1
Bulung'ur	562,8
Pastdarg'om	461,5
Oqdaryo	420,6
Kattaqo'rg'on sh.	349,8
Payariq	337,5
Narpay	298,9
Kattaqo'rg'on	211,0
Ishtixon	182,3
Paxtachi	152,8
Nurobod	76,9
Qo'shrabot	76,6

2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **10 042,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (**2 858,1** mlrd. so'm), Urgut (**1 271,5** mlrd. so'm), Jomboy (**1 182,9** mlrd. so'm), Samarqand (**937,5** mlrd. so'm) va Toyloq (**662,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qo'shrabot tumani (**76,6** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2023-yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **43,8 %** ni tashkil etdi.




2023-yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo, Bulung'ur va Qo'shrabot tumanlari (**100,0 %**), Kattaqo'rg'on shahri (**97,0 %**), Urgut tumani (**75,6 %**), Payariq (**67,2 %**), Samarqand (**61,2 %**), Pastdarg'om (**59,1 %**), Jomboy (**53,5 %**), Narpay tumani (**51,1 %**), Kattaqo'rg'on (**48,4 %**), va Nurobod (**36,4 %**) tumanlarida qayd etdi.

Bulung'ur	100,0
Oqdaryo	100,0
Qo'shrabot	100,0
Kattaqo'rg'on sh.	97,0
Urgut	75,6
Payariq	67,2
Samarqand	61,2
Pastdarg'om	59,1
Jomboy	53,5
Narpay	51,1
Kattaqo'rg'on	48,4
Nurobod	36,4
Toyloq	36,1
Paxtachi	32,6
Ishtixon	31,6
Samarqand sh.	26,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Toyloq	267,0	28,3
Pastdarg'om	273,7	45,8
Nurobod	72,2	84,2
Payariq	428,1	90,8
Qo'shrabot	136,1	90,8
Kattaqo'rg'on sh.	89,3	91,5
Bulung'ur	164,5	92,5
Urgut	358,3	96,8
Samarqand sh.	1 981,9	95,7
Ishtixon	316,1	98,0
Kattaqo'rg'on	511,0	97,0
Paxtachi	120,0	98,8
Narpay	171,6	98,1
Oqdaryo	506,2	99,2
Samarqand	309,7	99,3
Jomboy	283,7	100,0


2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5 989,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **83,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **121,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (**1 981,9** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**511,0** mlrd. so'm), Oqdaryo (**506,0** mlrd. so'm), Payariq (**428,1** mlrd. so'm), Urgut (**358,1** mlrd. so'm), Samarqand (**309,7** mlrd. so'm), Ishtixon (**316,1** mlrd. so'm) hamda Pastdarg'om (**273,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **11 850,5** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **62,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **105,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**3 547,8** mlrd. so'm), Samarqand (**1 364,1** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**2 825,6** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**665,2** mlrd. so'm), Urgut (**738,0** mlrd. so'm), Nurobod (**395,4** mlrd. so'm), Toyloq (**364,6** mlrd. so'm) hamda Jomboy (**330,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **34 801,7** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,7** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **90,1** % ni tashkil qildi.

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Urgut (**4 272,4** mlrd. so'm), Ishtixon (**3 687,9** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**3 655,4** mlrd. so'm), Bulung'ur (**3 470,4** mlrd. so'm), Payariq (**3 425,9** mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Kattaqo'rg'on sh.	170,9	99,9
Samarqand sh.	152,4	72,0
Samarqand	1 398,3	77,5
Qo'shrabot	1 423,0	99,8
Narpay	1 450,6	99,7
Nurobod	985,0	98,6
Toyloq	2 170,7	79,4
Jomboy	2 033,7	90,2
Paxtachi	1 533,4	98,3
Oqdaryo	2 053,6	96,0
Ishtixon	3 687,9	99,1
Kattaqo'rg'on	3 655,4	97,9
Bulung'ur	3 470,4	99,8
Payariq	3 425,9	99,8
Urgut	4 272,5	99,8
Pastdarg'om	2 918,0	98,1


hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, %

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **15 458,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **80,8** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **108,1** % ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Qo'shrabot	241,2	98,4
Nurobod	298,1	98,8
Oqdaryo	449,5	97,8
Paxtachi	465,1	98,9
Toyloq	622,2	97,9
Ishtixon	625,0	99,2
Jomboy	624,4	86,9
Payariq	677,5	99,2
Narpay	740,5	99,3
Bulung'ur	449,5	97,8
Pastdarg'om	861,3	96,5
Kattaqo'rg'on	976,7	95,9
Samarqand	1 082,7	61,2
Kattaqo'rg'on sh.	1 144,9	99,9
Urgut	1 985,3	98,4
Samarqand sh.	3 909,6	59,1

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (3 909,6 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (1 144,9 mlrd. so'm), Urgut (1 985,3 mlrd. so'm), Samarqand (1 082,7 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (976,7 mlrd. so'm), Pastdarg'om (861,3 mlrd. so'm) va Narpay (740,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2018-2023-yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm



hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda




Samarqand sh.	4 374,8
Samarqand	1 191,2
Pastdarg'om	1 003,1
Urgut	968,8
Jomboy	711,2
Toyloq	652,5
Kattaqo'rg'on	605,9
Payariq	600,9
Ishtixon	593,1
Narpay	563,7
Oqdaryo	528,7
Bulung'ur	413,8
Kattaqo'rg'on sh.	383,6
Qo'shrabot	333,0
Paxtachi	332,3
Nurobod	311,2

2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **13 567,8** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,9 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (**4 374,8** mlrd. so'm), Samarqand (**1 191,2** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**1 003,1** mlrd. so'm), Urgut (**968,8** mlrd. so'm), Jomboy (**711,2** mlrd. so'm), Toyloq (**652,5** mlrd so'm) va Kattaqo'rg'on (**605,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida 35,7 % (4 860,1 mlrd. so'm), transport xizmatlarida 33,2 % (4 240,6 mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda 6,7 % (1 347,1 mlrd. so'm) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida 5,7 % (899,8 mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda 0,4 % (41,2 mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh. dol.




Ulushi, %




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSh. dol.




Ulushi, %



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **209,8** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **43,2** % ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Nurobod	2,6	78,0
Qo'shrabot	1,6	100,0
Kattaqo'rg'on sh.	20,8	100,0
Bulung'ur	11,4	100,0
Oqdaryo	14,2	100,0
Payariq	7,7	100,0
Urgut	27,6	76,4
Kattaqo'rg'on	4,1	81,0
Ishtixon	7,6	60,2
Narpay	10,2	65,9
Pastdarg'om	6,3	56,6
Toyloq	7,0	52,0
Samarqand	27,4	52,4
Paxtachi	3,8	40,1
Jomboy	18,7	31,8
Samarqand sh.	31,4	15,4


hajmi, mln. AQSh. dollar

ulushi, %

2023-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Payariq, Oqdaryo, Bulung'ur, Qo'shrabot, tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida **100,0** %, Urgut tumanida **76,4** %, Kattaqo'rg'on tumanida **81,0** %, Ishtixon tumanida **60,2** %, Narpay tumanida **65,9** %, Pastdarg'om tumanida **56,6** %, va Toyloq tumanida **52,0** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Samarqand shahri **15,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **713,7** million AQSh dollarini yoki jami importning **47,7 %** ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, foizda

2023-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Payariq va Qo'shrabot tumanlarida **100,0 %**, Kattaqo'rg'on tumanida **99,5 %**, Kattaqo'rg'on shahrida **99,4 %**, Paxtachi tumanida **97,6 %**, Ishtixon tumanida **90,5 %**, Bulung'ur tumanida **93,2 %**, hamda Narpay tumanida **89,4 %** ni tashkil etdi.

Payariq	100,0
Qo'shrabot	100,0
Kattaqo'rg'on	99,5
Kattaqo'rg'on sh.	99,4
Paxtachi	97,6
Ishtixon	90,5
Bulung'ur	93,2
Narpay	89,4
Pastdarg'om	79,0
Urgut	87,1
Oqdaryo	82,4
Nurobod	75,5
Samarqand	63,5
Jomboy	55,0
Samarqand sh.	27,7
Toyloq	39,4

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati

91,7 %

Yuk
tashishda

2023-yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi. 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.

89,9 %

Yuk
aylanmasida

2023-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,9 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,0 %** ni tashkil qildi.

96,1 %

Yo'lovchi
tashishda

2023-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,1 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,4 %** ni tashkil qildi.


98,4 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,4 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023-yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 911** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **817 (42,8 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **949 (49,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **145 (7,6 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda **48,4 % (924 ta)**, xizmatlar sohasida **27,1 % (518 ta)**, sanoatda **14,6 % (279 ta)**, qurilishda **5,8 % (111 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **4,1 % (79 ta)**ni tashkil etdi.

2023-yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

589	Samarqand sh.	30,8
69	Kattaqo'rg'on sh.	3,6
66	Oqdaryo	3,5
75	Bulung'ur	3,9
85	Jomboy	4,4
76	Ishtixon	4,0
92	Kattaqo'rg'on	4,8
40	Qo'shrabot	2,1
82	Narpay	4,3
94	Payariq	4,9
130	Pastdarg'om	6,8
59	Paxtachi	3,1
167	Samarqand	8,7
65	Nurobod	3,4
133	Urgut	7,0
89	Toyloq	4,7


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (589 ta), Samarqand (167 ta), Urgut (133 ta), Pastdarg'om (130 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning III choragida **304** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragiga kelib esa **817** taga yetgan yoki 2018-yilning III choragiga nisbatan **513** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilda **654** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-sentabrida **949** ta yoki **295** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **37** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib **145** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan **108** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning III choragida **311** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragiga kelib esa **819** taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **508** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning III choragida **654** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragida **741** ta yoki **87** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2018-yilning III choragida **41** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **183** tani tashkil etib, **142** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning III choragida **32,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **49,7** % ga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **16,9** % birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilda **69,2** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragida **42,8** % yoki **26,4** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **0,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich **7,6** % ga yetgan yoki **6,9** % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning III choragida **67,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **47,0** % ga yetgan yoki 2018-yilning III choragida nisbatan **20,4** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilning III choragida **33,8** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-senatbrida **42,5** % yoki **8,7** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilning III choragida **0,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **10,5** % yoki **9,6** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda **44,7 %** ni, sanoatda **41,2 %** ni, xizmatlar sohasida **42,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **57,0 %** ni, xizmatlar sohasida **51,5 %**, sanoatda **50,9 %** ni, qurilish **46,8 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda **12,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **10,1 %** ni, sanoatda **7,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda **58,6** % ni, savdoda **55,3** % ni, sanoatda **53,8** % ni va xizmatlar sohasida **54,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **48,1** % ni, xizmatlar sohasida **41,5** % ni va sanoatda **40,5** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda **5,7** % ni, qurilishda **4,5** % ni hamda savdoda **4,4** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, foizda


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	47,0	42,5	10,5
Band bo'lganlar soni	30,1	62,7	7,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	40,8	54,0	5,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	32,6	60,9	6,5
Raqobat muhiti	44,3	51,9	3,8

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	51,2	43,6	5,2
Band bo'lganlar soni	34,4	61,3	4,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	40,3	55,5	4,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	35,3	59,9	4,8
Raqobat muhiti	45,1	51,9	3,0


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, foizda



2023-yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, foizda



* Faqat raqobat muhitiga tegishli